
"Karlal jamiyati" Farg'ona viloyati hududiy bo'linmasida shahar hokimi Vosiljon Nazarov tomonidan qabul o'tkazildi

Unga jamiyatning Farg'ona shahrida istiqomat qilayotgan a'zolari taklif qilindi. Jamiyat a'zolarining 60 nafarga yaqini shahar hokimiga turli masalalarda murojaat etishdi. Har bir murojaat tarjimonlar orqali shahar hokimi va mas'ullarga yetkazildi. Shu yerning o'zida 20 ga yaqin murojaatlar ijobiy hal etildi.

Qabul davomida davolanishga muhtoj, sihatgohlarga yo'llanma olish kabi tibbiy yo'nalishdagi o'ndan ortiq murojaat qabul qilindi. Mazkur murojaatlarni ijobiy hal etish maqsadida shahar hokimining topshirig'iga ko'ra, shu haftaning juma va shanba kunlari tibbiyot birlashmasi tomonidan jamiyatning barcha a'zolari tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi belgilandi.

Qabul so'ngida shahar hokimi jamiyat xodimlarining ham muammolarini eshitdi. Jamiyat a'zolari uchun tikuvchilik sexi qurish, binoni joriy ta'mirlash kabi masalalar mas'ul xodimlar tomonidan o'rganilib, hal etish choralari ko'rildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-12 22:20:28